



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 318 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmirzo</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbosovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
<i>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</i>	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	



Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayova Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhomet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	

DUTOR IJROCHILIGINING AMALIY-TEXNIK JIHATLARIGA E'TIBOR QARATISH VA USHBU JARAYONNI RIVOJLANTIRISH

Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

"Musiqqa ta'limi va madaniyat" kafedrası

Musiqqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlari, xususan, cholg'uni to'g'ri ushlash, o'ng va chap qo'l harakatlari, tovush hosil qilish usullari, ijro texnikasini takomillashtirish hamda ijrochilik mahoratini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, dutor ta'limida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, muntazam mashg'ulotlarning ahamiyati va milliy ijrochilik an'analarini saqlash hamda rivojlantirish omillari yoritiladi.

Kalit so'zlar: dutor, dutor ijrochiligi, ijro texnikasi, cholg'u san'ati, o'ng qo'l texnikasi, chap qo'l texnikasi, tovush hosil qilish, milliy musiqqa, musiqiy ta'lim, ijrochilik mahorati.

Abstract: This article examines the practical and technical aspects of dutar performance, including proper instrument positioning, right- and left-hand techniques, sound production methods, and the improvement of performance skills. Particular attention is given to the development of professional mastery, the application of modern pedagogical approaches in dutar education, and the preservation and advancement of national performance traditions.

Key words: dutar, dutar performance, performance technique, musical art, right-hand technique, left-hand technique, sound production, national music, music education, performance mastery.

Аннотация: В данной статье рассматриваются практико-технические аспекты исполнительства на дутаре, включая правильную постановку инструмента, особенности работы правой и левой рук, способы звукоизвлечения и совершенствование исполнительской техники. Особое внимание уделяется вопросам развития исполнительского мастерства, применению современных педагогических подходов в обучении игре на дутаре, а также сохранению и развитию национальных исполнительских традиций.

Ключевые слова: дутар, исполнительство на дутаре, исполнительская техника, музыкальное искусство, техника правой руки, техника левой руки, звукоизвлечение, национальная музыка, музыкальное образование, исполнительское мастерство.

KIRISH

Musiqqa tovushlarining balandligi, davomiyligi va boshqa xususiyatlarini maxsus belgilar (nota) orqali ifodalash tizimidir. Bu yozuv musiqqa asarini aniq qayd etish va avloddan avlodga yetkazish imkonini beradi. Nota yozuvi qadimdan turli xalqlar musiqqa amaliyoti va ilmiy izlanishlari natijasida shakllanib kelgan. Eng qadimiy namunalar Qadimgi Misr, Bobil va Xitoyda uchragan bo'lib, miloddan avvalgi III asrda Yunonistonda harflar orqali ifodalangan nota tizimi paydo bo'lgan.

O'rta Osiyoda ham nota yozuvi rivojlangan bo'lib, Abu Nasr Forobiy harfli nota tizimining ayrim shakllarini ishlab chiqqan. Keyinchalik XIII asrda Safiuddin al-Urmaviy ud cholg'usi uchun maxsus tabulatura tizimini yaratgan. Bu tizim jadval ko'rinishida bo'lib, unda tovush balandligi harflar bilan, davomiyligi esa raqamlar yoki belgilar bilan ifodalangan. XIX asr oxirida Xorazmda "tanbur chizig'i" deb ataluvchi tabulatura shakli ham qo'llanilgan. O'rta asrlarda Yevropada Gvido d'Arezzo tomonidan 4 chiziqli nota tizimi takomillashtirilgan va keyinchalik hozirgi besh chiziqli nota yozuviga asos bo'lgan. XVI asr oxirlaridan boshlab esa gomofoniya uslubida generalbas tizimi ham keng joriy etilgan (1-rasm).



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining dutor cholg'usi bo'yicha ijrochilik mahoratini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Musiqa ta'limi jarayonida talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularda amaliy ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dutor cholg'usida ijro etish texnikasini mukammal egallash, kuy va maqomlarni to'g'ri talqin qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish kelajakdagi pedagog faoliyati uchun zarur omillardan biridir.

Dutor ijrochiligini o'qitish jarayonida maxsus metodik yondashuvlardan foydalanish talab etiladi. Bunda talabalar individual qobiliyatlari, musiqiy eshitish darajasi, ritmni his qilish qobiliyati va ijodiy tafakkuri hisobga olinadi. Mashg'ulotlar davomida cholg'uni to'g'ri ushlash, o'tirish holati, qo'l harakatlarini erkin bajarish, torlarga aniq zarb berish kabi boshlang'ich texnik ko'nikmalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Shu bilan birga, murakkab kuylarni ijro etish orqali talabalar mahorati yanada rivojlantiriladi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham katta samara beradi. Asosan, video materiallar, nota dasturlari, interaktiv mashg'ulotlar hamda amaliy ko'rsatmalar orqali talabalar bilimini mustahkamlash mumkin. Ansambl va yakka ijro mashqlari esa ijrochining sahna madaniyatini, eshitish qobiliyatini va ijodiy faolligini rivojlantiradi. Bundan tashqari, improvizatsiya elementlari bilan ishlash talabalarni mustaqil fikrlashga va yangi musiqiy yechimlarni topishga o'rgatadi.



Dutor ijrochiligidagi muvaffaqiyatga erishish uchun muntazam mashq qilish muhim omil hisoblanadi. Talabalar tomonidan turli janrdagi kuy va maqomlarni ijro etish orqali ularning texnik va badiiy imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, xalq kuylarini o'rganish milliy musiqa merosiga hurmat va qiziqishni oshiradi. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida talabani ijrosini nazorat qilib, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berib boradi.


Bakalavriat bosqichida musiqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun dutor cholg'usi bo'yicha ijrochilik tayyorgarligini rivojlantirish muhim pedagogik jarayonlardan biri hisoblanadi. Mazkur tayyorgarlik jarayonida talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ijrochilik ko'nikmalari, kasbiy mahorati hamda pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlarini shakllantirish asosiy vazifalardan sanaladi. Shu nuqtai nazardan, o'quv jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dutor ijrochiligini o'qitishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar talabalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Dastlab oddiy texnik mashqlar orqali qo'l harakatlari, tovush sifati va ritmik aniqlik ustida ishlanadi. Keyingi bosqichlarda esa murakkab kuy va maqomlarni ijro etish orqali talabalar ijodiy hamda texnik mahoratini yanada mustahkamlaydi. Bu jarayon talabani mustaqil ishlash ko'nikmasini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, ta'lim davomida audio va video materiallardan foydalanish, interaktiv usullarni qo'llash, ansambl va yakka ijro mashg'ulotlarini tashkil etish o'quv samaradorligini oshiradi. Bunday texnologiyalar orqali talabalar musiqiy tafakkurini kengaytiradi, sahna madaniyatini egallaydi va ijrochilik tajribasini boyitadi. Ayniqsa, xalq kuylarini ijro etish davomida milliy musiqa an'analariga hurmat va qiziqish yanada kuchayadi.

Dutor ijrochiligidagi kasbiy mahoratni rivojlantirish uzluksiz mashq va izlanishni talab qiladi. Talabani texnik imkoniyatlari, eshitish qobiliyati va badiiy didi muntazam mashg'ulotlar orqali shakllanib boradi. O'qituvchining to'g'ri metodik yondashuvi esa talabani individual qobiliyatlarini ochib berishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi (2-rasm).

Dutor ijrochiligi kompetensiyalarini egallashning nazariy va amaliy modeli





1. Applikatura - ushbu atama nemis tilidan olingan bo'lib, "bosmoq" degan ma'noni anglatadi. Bu jarayon ijro davomida eng muhim bosqich hisoblanadi. Chunki biror nota aniq bosilib ijro etilmasa, uning eshinishi nohangdosh (falsh) bo'lishi mumkin.
2. Dutor ijrochiligidagi o'ng va chap qo'l harakatlarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijro jarayonining sifatli va ravon chiqishi aynan ikki qo'lning bir-biriga mos harakat qilishiga bog'liq bo'ladi. Dastlabki o'quv bosqichida o'ng va chap qo'lning vazifalari alohida mashqlar orqali o'rgatiladi. Bu jarayonda o'ng qo'lning zarb berish usullari hamda chap qo'lning pardalarni aniq bosish harakatlari bosqichma-bosqich shakllantiriladi.
3. Keyingi mashg'ulotlarda esa ikki qo'l harakatlarini birgalikda boshqarish ustida ishlanadi. Sozanda kuy ijro etayotganda o'ng qo'lning ritmik harakati bilan chap qo'lning tovushlarni aniq hosil qilishi o'zaro mos bo'lishi lozim. Agar ijrochi e'tiborini faqat bir qo'l harakatiga qaratib, ikkinchi qo'l faoliyatini nazorat qilmasa, ijroda turli xatolar va noaniqliklar yuzaga keladi.
4. Shu sababli dator chalishni o'rganishda har ikki qo'lning erkinligi, aniqligi va uyg'un harakatiga muntazam ravishda e'tibor berish talab etiladi. Bunday mashqlar ijrochining texnik imkoniyatlarini kengaytirib, kuylarni yanada mazmunli va sifatli ijro etishga yordam beradi.
5. Ijro jarayonida uchraydigan asosiy kamchiliklardan biri - chap qo'l barmoqlarining almashinuvi bilan o'ng qo'lning tovush hosil qilish harakati o'rtasidagi uyg'unlikning buzilishidir. Masalan, birinchi tovush chalingandan so'ng ikkinchi tovush o'ng qo'l bilan ijro etiladi, biroq chap qo'l barmog'i kerakli pardani o'z vaqtida bosishga ulgurmaydi. Natijada tovush to'liq eshitilmaydi yoki xira, bo'g'i holatda chiqadi. Ayrim hollarda buning teskarisi ham kuzatiladi: chap qo'l harakati o'z vaqtida bajariladi, ammo o'ng qo'l zarbasi kechikib qoladi. Yana bir muammo - pardadan pardaga o'tish jarayonida qo'llar harakatining mos kelmasligidir. Bunda chap qo'l barmoqlari yangi pardaga tez o'tsa-da, o'ng qo'l zarbani o'z vaqtida bera olmaydi yoki aksincha holat yuz beradi. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun qo'llar harakatini muvofiqlashtirishga qaratilgan mashqlar, ayniqsa, gammalar ustida muntazam ishlash tavsiya etiladi.
6. Ushbu dator cholg'usi uchun maxsus zarblarning (shtrixlarning) uyg'unligi
7. Dutorni ushlashda pastki qovurg'a o'ng oyoq soni ustiga joylashtiriladi. Ustki qovurg'a esa o'ng qo'l tirsagiga yaqin bilak qismi bilan tutib turiladi. Bunday holatda cholg'u qopqog'i biroz yuqoriga yo'nalgan bo'ladi va dator dastasining uchi chap yelka darajasiga tenglashadi. Dutor dastasi chap qo'lning birinchi barmog'i katta va o'rta bo'g'inlari oralig'iga to'g'ri keladi, barmoqlar esa yengil bukilgan holda pardalar ustiga joylashadi. Chap qo'l barmoqlarining qaysi pardani bosishi nota belgilari ustida raqamlar orqali ifodalanadi. Ikkinchi torni ijro etishda ko'pincha bosh barmoqdan foydalaniladi.
8. Musiqa cholg'usida tovush hosil qilish usuli zarb deb ataladi. Ijro etilayotgan asarning ifodaviyligi va jozibadorligi ko'pincha tanlangan zarb turiga bog'liq bo'ladi. Dutor ijrosida turli xil zarblar qo'llanilib, ular asarga o'ziga xos ohang va rang-baranglik beradi.
9. Ulardan biri - aylanma zarb bo'lib, u terma zarbga o'xshash tarzda aniq va bir maromda bajariladi. Bunda ko'rsatkich va bosh barmoq navbatma-navbat pastga va yuqoriga harakatlanib, tez va uzluksiz tovush hosil qiladi (3-rasm).



Terma zarb - bu zarb turida barmoqlar harakati aniq, bir maromda va bir xil kuch bilan bajariladi. Bunda ko'rsatkich va bosh barmoqlar ketma-ket pastga hamda yuqoriga harakatlanib, tovush hosil qiladi. So'ngra bosh barmoq va ko'rsatkich barmoq navbatma-navbat yuqoriga ko'tarilish orqali zarb davom ettiriladi. Bosh barmoq "b", ko'rsatkich barmoq esa "k" harfi bilan ifodalanadi (4-rasm).



Teskari zarb - bu usulda harakatlar teskari tartibda amalga oshiriladi: ko'rsatkich barmoq pastga, bosh barmoq yuqoriga, so'ng yana ko'rsatkich barmoq yuqoriga va pastga yo'naltiriladi. Keyingi bosqichlarda bosh barmoq yuqoriga, ko'rsatkich barmoq esa navbat bilan yuqori va past harakatlarda ishtirok etadi. Bu zarb turi ijro jarayonida ketma-ketlik va ritmik almashuv asosida hosil qilinadi (5-rasm).



Tremolo - bir vaqtning o'zida olingan bir yoki ikki tovushni ko'rsatkich barmoq uchi yordamida ketma-ket, juda tez va uzluksiz tarzda bir necha marta ijro etish usulidir. Bu ijro usuli tovushga titroq va davomiylik xususiyatini beradi. Ushbu usul odatda quyidagicha belgilanadi (6-rasm).



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dutor ijrochiligi o'zbek milliy cholg'u san'atining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning nazariy va amaliy asoslari qator olimlar hamda amaliyotchi ijrochilar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur mavzuni o'rganishda R.M. Xojievaning "Dutor darsligi" (2007) muhim metodik manba hisoblanadi. Ushbu darslikda dutor cholg'usining tuzilishi, ijro holati, tovush hosil qilish usullari, barmoq harakatlari va dastlabki ijrochilik mashqlari batafsil yoritilgan. Muallif dutor ijrochiligida texnik ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi.

A. Abdurashidovning "O'zbek xalq cholg'ulari tarixi va ijrochiligi" asarida milliy cholg'u asboblarning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari hamda ijrochilik an'analari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Asarda dutor cholg'usining xalq musiqa madaniyatidagi o'rni va uning zamonaviy ijrochilik maktablari rivojiga qo'shayotgan hissasi yoritilgan.

Y. Rajabiyning "O'zbek xalq musiqasi" asari o'zbek milliy musiqasining nazariy va amaliy asoslarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Muallif xalq kuylarining ijro uslublari, ularning shakllanish jarayonlari va milliy cholg'ular bilan bog'liq xususiyatlarini yoritgan. Ushbu manba dutor repertuarining shakllanishi va rivojlanishini o'rganishda alohida ahamiyatga ega.



G. Muhamedovanning “Dutor” nomli o’quv qo’llanmasida dator ijrochiligining amaliy jihatlarini, mashq tizimlari va ijrochilik malakalarini rivojlantirish usullari bayon etilgan. Mazkur manba yosh ijrochilarning texnik mahoratini shakllantirishda samarali metodik tavsiyalarni o’z ichiga oladi.

Sh. Shodiyevaning “Dutor sadolari” asarida dator uchun mo’ljallangan kuy va mashqlar jamlangan bo’lib, ular o’quvchilarning ijro texnikasini rivojlantirish, musiqiy tafakkurini kengaytirish va sahnaviy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlarini o’rganishda Sh. Shodiyevaning “Dutor sadolari” asari muhim metodik manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur to’plamda dator uchun mo’ljallangan kuylar, mashqlar va o’quv repertuarlari jamlangan bo’lib, ular ijrochilarning texnik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muallif asarda dator chalish jarayonida tovush sifatini shakllantirish, barmoq harakatlarini erkinlashtirish, ritmik aniqlikni ta’minlash va musiqiy ifodaviylikka erishish masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Sh. Shodiyeva dator ijrochiligini o’qitishda bosqichma-bosqich yondashuvni tavsiya etadi. Jumladan, dastlabki mashg’ulotlarda o’quvchilarda to’g’ri ijro holatini shakllantirish, chap va o’ng qo’l harakatlarini muvofiqlashtirish hamda oddiy mashqlar orqali texnik tayyorgarlikni rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Keyingi bosqichlarda esa murakkabroq kuylar va turli xarakterdagi asarlar ustida ishlash orqali ijrochilik mahoratini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Asarda keltirilgan mashqlar tizimi o’quvchilarning barmoq texnikasini rivojlantirish, tezkorlikni oshirish va dutorning ijro imkoniyatlarini to’liq namoyon etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy kuylar asosida tuzilgan o’quv repertuari yosh ijrochilarda milliy musiqa merosiga qiziqish uyg’otish bilan birga, ularning badiiy-estetik dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, A. Abdurashidovning “O’zbek xalq cholg’ulari tarixi va ijrochiligi” asarida dutorning tarixiy taraqqiyoti va ijrochilik an’analari yoritilgan bo’lsa, Y. Rajabiyning “O’zbek xalq musiqasi” asarida xalq kuylarining badiiy xususiyatlari va ularni ijro etish usullari tahlil qilingan. O. Matyoqubovning “Maqomot” asarida esa maqom ijrochiligi bilan bog’liq nazariy qarashlar bayon etilib, dator ijrochiligining professional rivojlanishiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Tahlil qilingan manbalar orasida Sh. Shodiyevaning “Dutor sadolari” asari dator ijrochiligining aynan amaliy-texnik jihatlarini rivojlantirishga yo’naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda tavsiya etilgan mashqlar va repertuar namunalariidan foydalanish o’quvchilarning texnik tayyorgarligini oshirish, ijro madaniyatini shakllantirish hamda dator san’atining an’anaviy ijrochilik usullarini samarali o’zlashtirish imkonini beradi. Shu sababli mazkur tadqiqotda Sh. Shodiyevaning metodik qarashlari dator ijrochiligini rivojlantirishning muhim nazariy va amaliy asosi sifatida qabul qilindi.

O. Matyoqubovning “Maqomot” asarida maqom san’atining nazariy asoslari va ijrochilik xususiyatlari yoritilgan. Maqom yo’llarini dutorida ijro etish texnikasi va badiiy ifoda vositalari haqida berilgan ma’lumotlar dator ijrochiligini rivojlantirishda muhimdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot davomida dator ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e’tibor qaratish ijrochilik mahoratini rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, dator chalishni o’rgatish jarayonida ijro holati, qo’l va barmoq harakatlarining to’g’ri shakllantirilishi, ritmik aniqlik, tovush sifati va musiqiy ifodaviylik ustida muntazam ishlash o’quvchilarning texnik tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Sh. Shodiyevaning “Dutor sadolari” asarida tavsiya etilgan mashqlar va repertuar namunalari o’quvchilarning ijro texnikasini rivojlantirishda samarali metodik vosita ekanligi kuzatildi. Ayniqsa, bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi mashqlar tizimi barmoqlar harakatchanligini oshirish, tovushning ravon va aniq chiqishini ta’minlash hamda ijrochilik malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, dator ijrochiligini o’qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg’ulotlar ulushini ko’paytirish, individual yondashuvni qo’llash va milliy kuylar asosidagi repertuardan samarali foydalanish o’quvchilarning ijodiy faolligi hamda musiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, muntazam mashq qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash orqali ijrochilikdagi texnik qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkinligi aniqlandi.

Olingan natijalar dator ijrochiligi ta’limida amaliy-texnik ko’nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko’rsatdi. Bu esa kelgusida malakali ijrochilarni tayyorlash, milliy cholg’u san’atini rivojlantirish va yosh avlodga milliy musiqa merosini yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga alohida e’tibor qaratish milliy musiqa san’atini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Ijrochilik jarayonida to’g’ri o’qitish holati, qo’l va barmoqlar texnikasi, tovush hosil qilish usullari, ijro mahorati hamda repertuar bilan ishlash ko’nikmalarini takomillashtirish dator ijrochilarning kasbiy



salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, an'anaviy ijrochilik maktablari tajribasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish yosh avlodning milliy cholg'u san'atiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Natijada, dutor ijrochiligining amaliy-texnik asoslarini ilmiy va metodik jihatdan rivojlantirish ijrochilik sifatini yuksaltirish, milliy musiqiy merosni asrab-avaylash hamda uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa dutor san'atining milliy va xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xojiyeva R.M. Dutor darsligi. – 2007-yil.
2. Abdurashidov A. O'zbek xalq cholg'ulari tarixi va ijrochiligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 256 b.
3. Rajabiy Y. O'zbek xalq musiqasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 320 b.
4. Muhamedova G. Dutor. – Toshkent, 2014-yil.
5. Shodiyeva Sh. Dutor sadolari.
6. Abdurashidov A. O'zbek xalq cholg'ulari tarixi va ijrochiligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 256 b.
7. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiq, 2004. – 368 b.
8. Karomatov F. O'zbek cholg'u musiqasi tarixi. – Toshkent: Fan, 1972. – 214 b.
9. Jabborov A. O'zbek xalq musiqasi madaniyati tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 280 b.
10. Rasulov A. Dutor ijrochiligi va uning pedagogik asoslari. – Toshkent: Musiq, 2020. – 184 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.